**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Ro‘yxatga olindi:**
BD- 60230100-2.07.
“____” _______2024-

**“TASDIQLAYMAN”**
Termiz davlat universiteti
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori:
_____________ R.To‘rayev
“ 26 ” ___06___ 2024-yil

# SOTSIOLINGVISTIKA FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230000 – Tillar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) |

**Termiz –2024**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>302SL3 4</td><td>O‘quv yili<br>2024-2025</td><td>Semestr<br>5</td><td colspan="2">ECTS - Kreditlar<br>4</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan / modul turi:<br>Tanlov</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>4</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">SOTSIOLINGVISTIKA</td><td>Jami: 60</td><td>60</td><td>120</td></tr>
<tr><td>2.</td><td colspan="5">

I. MODUL TAVSIFI

«Sotsiolingvistika» fanidan 20 soat ma’ruza, 20 soat amaliy, 20 soat seminar mashg‘ulot va 60 soat mustaqil ish rejalashtirilgan. Fanga doir manbalar asosida matnlarni tayyorlashda o‘zbek tilida chop etilgan darslik va qo‘llanmalar asos qilib olindi. Ma’ruzalar matni o‘quv qo‘llanmalarga nisbatan ancha qisqa, ammo masalalar lo‘nda qilib keltirilgan. U yoki bu masala yuzasidan kengroq ma’lumot olish uchun, albatta, darsliklarga murojat qilish shart.

“Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmon, “Davlat tili to‘g‘risida”gi va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dan kelib chiqqan holda, “Sotsiolingvistika” fanining predmeti, maqsadini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, talabalarni tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelgan yangi sohalar – sotsiolingvistika, antropolingvistika, psixolingvistika, areallingvistika, lingvokulturologiya, lingvopoetika, pragmalingvistika, shuningdek, semiotika, logopediyaga oid bilim va ko‘nikmalar, tilshunoslikning sotsiologiya, fiziologiya fanlari bilan munosabatiga oid masalalarni tahlil qilishda zarur bo‘lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

II. FANNING MAZMUNI

Modul nazariy hamda amaliy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar tarzida tashkil etiladi. Mazkur modul, asosan, “Tilshunoslik va ijtimoiy fanlarning aloqasi” borasidagi bilimlarni shakllantirish va mustahkamlashni o‘ziga maqsad qilgan talabalar uchun foydali bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha bilimlarni oshirish uchun talabalar ikkilamchi o‘rganish materiallari bilan ta’minlanadi, mashg‘ulotlar davomida har bir mavzuga mos ravishda sotsiolingvistika va uning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish doirasidagi ma’lumotlar berib boriladi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – tilning ijtimoiy tabiati, til bilan jamiyatning

</td></tr>
</table>

o‘zaro bog‘likligi, lisoniy vaziyatlar, tilning funksional tasniflari, sotsiolingvistikada savodxonlik masalalari haqida ma’lumot berishdir.

Fanning vazifalari – talabalarda “Sotsiolingvistika” fanining vujudga kelishi va rivojlanishi bo‘yicha bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash; talabalarda sotsiolingvistika bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarni shakllantirish; sotsiolingvistika fanining tarixi haqida bilim berishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.

*Talaba:*

“Sotsiolingvistika” fanini bo‘yicha bakalavr tilning ijtimoiy mohiyati, til va jamiyat munosabati, lisoniy vaziyat va uning turlari, bilingvizm va uning turlari *haqida tasavvurga ega bo‘lishi;*

Sotsiolingvistikaning nazariy masalalarini, til ontologiyasi masalalarini, tilning funksional tasniflarini, lisoniy qurilmalarni *bilishi va ulardan foydalana olishi;*

Sotsiolingvistikaning til bilan jamiyat bog‘liqligiga oid nazariy masalalarni hal qilishdagi asosiy fan sifatidagi ahamiyatini asoslash, sotsiolingvistikaning til bilan jamiyatning o‘zaro bog‘liqligiga oid amaliy masalalarni hal qilishdagi asosiy fan sifatidagi ahamiyatini asoslash, sotsiolingvistik metodlarni amalda tatbiq qilish *ko‘nikma-lariga ega bo‘lishi kerak..*

## III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

### 1-modul. Sotsiolingvistika fan sifatida

#### 1-ma’ruza. “Sotsolingvistika” fanining predmeti, vazifalari.

Fan haqida umumiy ma’lumot, fanning metodologik yo‘nalishi, sotsiolingvistikaning ma’no mundarijasi, fanning maqsad va vazifalari, sotsiolingvistika tarixi.

#### 2- ma’ruza: Lisoniy hamjamiyat. Ijtimoiy-kommunikativ tizim.

XX asr – tilshunoslikda global o‘zgarishlar asri, fan va uning paydo bo‘lishi, fanlar sistemasi, fanlar tasnifi haqida, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan munosabati, tilshunoslikning fanlar tizimidagi o‘rni, ijtimoiy-kommunikativ munosabat.

### 2-modul. Nutqiy muloqotda tilning o’rni

#### 3- ma’ruza: Nutqiy muloqot, muomala, akt.

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi. Kommunikatsiya, verbal va noverbal kommunikatsiya, kommunikativ vaziyat, kommunikativ vaziyat komponentlari, kommunikativ salohiyat, ijtimoiy maqom, ijtimoiy rol, lisoniy ijtimoiylashuv

#### 4-ma’ruza: Sotsiolingvistikada psixolingvistik va sotsiologik tushunchalar

Kommunikativ aloqa, kommunikatsiya. Verbal va noverbal, kommunikativ

vaziyat, kommunikativ vaziyat komponentlari, kommunikativ salohiyat, ijtimoiy maqom, ijtimoiy rol, lisoniy ijtimoiylashuv

**5- ma’ruza: Diglossiya va bilingvizm. Interferensiya. Kodlar aralashuvi.**

Kodlar aralashuvi, bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish, so‘zlovchi rolining almashinuvi, muloqot mavzusi, diglossiya, biiingvizm, ikki tiliilik, ko‘p tillilik, koordinativ biiingvizm, aralash biiingvizm, subordinativ biiingvizm, interferensiya.

**6-ma’ruza. Makro va mikrosotsolingvistika. Sinxron va diaxron sotsolingvistika**

Sinxron sotsiolingvistika, diaxron, sotsiolingvistika, makro sotsiolingvistika, mikro sotsiolingvistika, nazariy sotsiolingvistika, tajribaviy sotsiolingvistika, til sotsiologiyasi, amaliy sotsiolingvistika

**7-ma’ruza. Nazariy va tajribaviy sotsiolingvistika**

Sotsiolingvistika va til sotsiologiyasi, amaliy sotsiolingvistika, nazariy sotsiolingvistika, sotsiolingvistik tariba, til va jamiyat.

**8- ma’ruza: Tilshunoslik va semiotika.**

Sistema haqida ma’lumot. Tilning mohiyati. Uning sistema ekanligi. Lingvistik belgining erkinligi. Lingvistik belgi ifodalovchisining ketma-ketligi. Lingvistik belgining o‘zgarmaslik va o‘zgaruvchanligi. Sistema, uning asosiy belgilari, belgi va uning xususiyatlari, lingvistik belgining xususiyatlari, tilning sistemaviyligi, struktura tushunchasi.

**3-modul. Lisoniy va nolisoniy vaziyatlarda tilning o‘rni**

**9-ma’ruza. Lisoniy vaziyat. Ekzogloss va endogloss lisoniy vaziyatlar**

Lisoniy vaziyat, ekzogloss lisoniy vaziyat, muvofiqlashgan va muvofiqlashmagan ekzogloss lisoniy vaziyat, endogloss lisoniy vaziyat, muvofiqlashgan va muvofiqlashmagan endogloss lisoniy vaziyat, til siyosati, ichki til siyosati, tashqi til siyosati, tilni planlashtirish.

**10-ma’ruza. Sotsolingvistik tadqiqot metodlari**

Sotsiolingvistik metodlar, manba to‘plash metodlari, kuzatish metodi, soiovnom a metodi, yozma manbalarni umumilmiy tahlil metodi, bevosita aralashma kuzatuv metodi, anketalashtirish, og‘zaki so‘rovlar, testlar, statistik tahlil, korrelatsion tahlil, sotsiolingvistik tadqiqot dasturi.

## IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR:

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishdan maqsad ma’ruza materiallari bo‘yicha talabalar bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish hamda kengaytirishdan iboratdir. Shu maqsadda hamma mavzularga doir va etarli miqdordagi masalalar echish nazarda tutiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar turli o‘tilgan mavzular bo‘yicha nazariy va amaliy masalalami o‘rganadilar. Shuningdek, darslik va qo‘llanma, internet ma’lumotlari vositasida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqama materiallaridan foydalanish kabi o‘qitish usullaridan qo‘llash orqali mustaqil fikrlash ko‘nikmasi shakllantiriladi.

**Amaliy mashg‘ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Sotsiolingvistika fanining maqsad va vazifalari.
2. Variativlik turlari. Ijtimoiy variativlik. Gender variativlik.
3. Badiiy asar tilining ijtimoiy mohiyati.
4. Sotsial masalalarning lisoniy ifodasi yuzasidan amaliy ishlar bajarish
5. Lisoniy hamjamiyatning muloqot vositalari. adabiy til. Dialekt. Sotsiolekt. Argo va jargon.
6. Adabiy til. Jonli so‘zlashuv tili.
7. Dialektal qatlam va uning ijtimoiy mohiyati.
8. Xalq og‘zaki tili. Koyne.
9. Ikki tillilik va uning ijtimoiy asoslari.
10. O‘zbek adabiy tili tarixini sotsiolingvistik asosda o‘rganish.

**Izoh:** Mazkur ro‘yxatdagi mavzulardan amaliy mashg‘ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish, mavzuga doir adabiyotlarning mavjudligiga e’tibor qaratish tavsya etiladi. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

## V. SEMINAR MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHAKO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Seminar mashg‘ulotlarda talabalar sotsiolingvistika fanining butun taraqqiyoti davomida shakllangan hodisa ekanligi, uning paydo bo‘lishi va olimlarning fanga qo‘shgan hissasi haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Bugungi kunda ijtimoiy fan sohalari ancha nisbiy xarakterga ega bo‘lmoqda. Bunday fanlarga sotsiolingvistika misol bo‘la oladi. Bu fan sotsiologiya va tilshunoslik fanlarining tutash joyida rivojlanayotgan sohadir. Sotsiolingvistika tilshunoslik yo‘nalishidagi fan bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarda tilning tutgan o‘rnini, til taraqqiyotini va tilning funksional jihatlarini hamda jamiyat til uchun, til esa

jamiyat uchun xizmat qilishi haqida talabalar ko‘nikma va malaka hosil qiladilar. Sotsiolingvistikaga oid ma’lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil va talqin etishga yo‘naltiriladi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chog‘ida munozara yoki ma’ruza shaklida himoya qiladi. Talabalar uyga berilgan mustaqil ishlar asosida ilmiy seminar uyushtiradilar, muammoli ta’lim usulida tashkil etilgan seminar natijasida talabalar amaliy ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladilar.

**Seminar mashg‘ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular**

1. Sotsiolingvistikaning asossiy yo‘nalishlari.
2. Ijtimoiy kommunikativ tizim. Lisoniy kod.
3. Diglossiya, interferensiya.
4. Lisoniy vaziyat. Ekzogloss va endogloss lisoniy vaziyat.
5. Sinxron va diaxron sotsiolingvistika.
6. Sotsiolingvistika va til sotsiologiyasi.
7. Sotsium va individ.
8. Til va sotsium: mavjud muammolar va yechimlar.
9. Sotsiolingvistikada savod tushunchasi.
10. Sotsiolingvistik metodlar.

**Izoh:** Seminar mashg‘ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

## VI. MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

“Sotsiolingvistika” fanni o‘rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va sotsiolingvistikaning nazariy masalalarini tahlil qilishda muayyan ko‘nikma hosil qilish uchun mustaqil ta’lim tizimiga asoslanib, kefedra professor-o‘qituvchilari rahbarligida mustaqil ishlar bajaradilar. Bunda ular qo‘shimcha adabiyotlarni o‘rganish hamda internet saytlaridan foydalanib, referatlar, ilmiy ma’ruzalar tayyorlaydilar, amaliy mashgulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko‘rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

- ✓ amaliy mashg‘ulotarga tayyorgarlik;
- ✓ seminar mashg‘ulotarga tayyorgarlik;
- ✓ darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish -tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;
- ✓ maxsus adabiyotlar boyicha fan bo‘limlari yoki mavzular ustida ishlash;

| | |
|---|---|
| | ✓ o‘quv ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;<br>✓ ma’ruza kursining ma’lum bir qismlari bo‘yicha taqdimotlar va ma’ruza fragmentlarini tayyorlash;<br>✓ tanlangan mavzu bo‘yicha referatlar yozish va loyihalar tayyorlash;<br>✓ lisoniy material yoki adabiyoti material asosida konseptual tahlil metodlarini qo‘llagan holda til va tafakkur munosabatlarini, milliy dunyoqarashning xususiyatlarini, lisoniy-kognitiv foliyatning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil etish;<br>zamonaviy lingvistik yo‘nalishlarining asosiy muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borish<br>Mustaqil ta’lim uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:<br>**Mustaqil ta’lini uchun mavzular:**<br>1. Sotsiolingvistik tadqiqotlarning ahamiyati<br>2. Sotsiolingvistika va uning mohiyati<br>3. Sotsiolingvistik tadqiqotlar tahlili<br>4. Sotsiolingvistikaning o‘rganish obyekti.<br>5. Tilshunoslik fanlar sistemasidagi o‘rni<br>6. Adabiy til. Jonli so‘zlashuv tili<br>7. Sotsium va til<br>8. Argo, jargon, sleng.<br>9. Til egasining kommunikativ salohiyati<br>10. Tilshunoslik va etnografiya<br>11. Tilshunoslikning sotsiologiya bilan munosabati<br>12. Ijtimoiy maqom va ijtimoiy rol.<br>13. Sotsiolingvistika fan sifatida<br>14. Lisoniy faoliyatning pragmatik xususiyatlari<br>15. Adabiy til, dialekt va sotsiolekt<br>16. Sotsiolingvistika va til siyosati, davlat mafkurasi<br>17. Sotsiolingvistikaning nolisoniy asoslari<br>18. Til kontaktlari sotsiolingvistikaning bosh masalasi sifatida<br>19. Psixolingvistika<br>20. Bilingvizm va polilingvizmning nolisoniy asoslari<br>21. Til kontaktlari sotsiolingvistikaning bosh masalasi sifatida<br>22. Til kontakti tushunchasining komponentlari: adresant, adresat, til<br>23. Til va uning jamiyat taraqqiyotidagi o’rni.<br>24. Xalqaro, millalararo va zonal tillar<br>25. Tilning vazifaviy turlari<br>26. Xalqaro, millatlararo va zonal tillar. |

| | |
|---|---|
| | 27. Milliy til va uning shakllanish asoslari<br>28. Tilshunoslikning logopediya va defektologiya bilan munosabati<br>29. Psixoterapiyada nutq va intonatsiyaning o‘rni<br>30. Adabiy til va dialektlar<br><br>**Izoh:** *Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot, esse, grafik ko‘rinishdagi jadvallar orqali namoyish qilish tavsiya etiladi. Bu mavzular talabalarga aniqlashtirib berilishi shart.* |
| **3.** | **VII. FAN O‘QITILISHINING NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPETENSIYALAR)**<br>✓ “Sotsiolingvistika”ning nazariy va amaliy muammolari, uning filologik fanlar tizimidagi o‘rni, o‘zbek tilshunosligida sotsiolingvistika sohasining rivojlanishi, fanning ahamiyati va metodikalari bo‘yicha tasavvur va bilimlarga ega bo‘lish;<br>✓ o‘zbek tilida mavjud sotsiolingvistik tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyatlarni o‘zlashtirish, ilmiy adabiyotlarda mavjud fanga oid ma’lumotlarni tahlil qilish va ularni o‘z ilmiy ishiga tatbiq eta olish va talabalar konferensiyasi hamda seminarlarida taqdim eta olish malakalariga ega bo‘lishi lozim. |
| **4** | **VIII.TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:**<br>✓ ma'ruzalar;<br>✓ interfaol keys-stadilar;<br>✓ seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>✓ guruhlarda ishlash;<br>✓ taqdimotlarni qilish;<br>✓ individual loyihalar;<br>✓ jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **IX. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish va yakuniy nazorat topshirish. |
| **6.** | **X. ADABIYOTLAR**<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. Borbala Ritcher. Firrst steps in theoretical and applied linguistics. – Budapesht, 2006.<br>2. Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. O‘quv qo‘llanma. – |

Toshkent: Universitet, 2014.

3. Elova D., Safarova G. Sotsiolingvistika // o‘quv-uslubiy qo‘llanma // Toshkent – 2021, 100 b.

4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2011.

5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent, 2004.

6. Usmonova Sh., Bekmuhamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. – Toshkent, 2014.

7. Yo‘ldoshev, M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 112 b.

8. Алиқориев Н.С. ва б. Умумий сотсиология. – Т., 1999.

9. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М, 2001.

10. Маслова В.А. Лингвокултурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. – М.: Издателский сентр «Академия», 2001.

11. Маҳкамов Н. ва б. Лингвистик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: 2013.

12. Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – 164 б.

13. Мечковская Н.Б. Социальная лингвистика. – М.: Аспект пресс, 1996.

14. Нурмонов А., Йўлдошев Б. тилшунослик ва табиий фанлар. – Т.: Шарқ, 2001.

15. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Академнашр, 2012.

16. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2002.

17. Юсселер М. Социолингвистика. – Киев: Вища школа, 1987.

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. – Toshkent: Fan, 2007.

2. Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? – Toshkent, 1981.

3. Searle J. Contenporary philosophy in the United States // The Blackwell companion to philosophy. – Oxford, 1996.

4. Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In the Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller.

5. Кандауров В.И., Страданшенков А.С. Социология. Курс лекции. – М.: Инфрам, 2001.

6. Mallajonova M.M. va boshq. Sotsiologiya fanidan ma’ruzalar matnlari. – Toshkent: ToshDU, 2003.

7. Nosirxo‘jayev S., Bekmurodov M., Sultonov T., Nosirxo‘jayeva H. Sotsiologiya asoslari. Ma’ruzalar matni. – Toshkent: Nizomiy nom. TDPU, 2000.

8. Мирзиёев М.Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.

9. Мирзиёев М.Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

10. Мирзиёев М.Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи. 2017 йил, 8 феврал).

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисидаги қарори (Халқ сўзи. 2017 йил, 27 апрел).

13. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.

14. Қурбонова М.М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Содда гап синтаксиси учун материаллар. – Тошкент: Университет, 2002.

15. Қурбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи: Филол фан. ном. .. дис. Автореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2009.

**Internet saytlari**

http://en.wikipedia.org/wiki/Sotsiolingvistika.
http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.htm
http://www.krugosvet.ru
http://genhis.philol.msu.ru .
http://ru.wikipedia.org
http://www.sonsayfa.com/author_article_detail.php?id=2873.
http://www.tlfq.ulaval.ca/axl/europe/france-3politik_minorites
http://www.tlfq.ulaval.ca/axl/francophonie/francophonie.htm.
http://altaica.ru/bibliograf/e_korean.htm#sociolinguistics.
http://www.krugosvet.ru/articles/82/1008258/1008258a1.htm 03-06-16.
www.unesco.org/culture/ich/index.php?RL=00203.
http://russian.news.cn/economic/2009-11/03/c_1378126.htm.
http://www.ziyo-net.uz
http://www.kutubxona.uz

| | |
|---|---|
| **7.** | **Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**<br><br>O‘quv dasturi Termiz davlat universiteti o‘quv-uslubiy Kengashining 2024-yil “26” - 06 ___ dagi 11 -sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan.<br><br>O‘zbek filologiyasi fakultetining 2024-yil “12” - 06 ___ dagi 10-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.<br><br>“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasining 2024-yil “7” - 06 ___ dagi 20 - sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ullar:**<br>**M.Botirova** – “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi,<br>**Z.Turayeva** – “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>**S.Karimov** – Samarqand davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi professori.<br>**A.Hamidov** – Nizomiy nomidagi pedagogika instituti Termiz filiali “O‘zbek filologiyasi” fakulteti dekani, PhD. |